

**ESSE YOZISHNI O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARDA NUTQIY  
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH**

**Qurbonaliyeva Husnidaxon Akmaljon qizi**

Qo'qon DPI talabasi

**Ilmiy rahbar: Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna**

Qo'qon DPI dotsenti, PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarga yozish nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda esse yozma ish turidan foydalanishning innovatsion texnologiyalar yordamida dars ishlanma yozishda uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** esse, yozish nutqiy kompetensiyasi, bog'lanishli nutq.

**Darsning maqsadi:**

Ta'limiy: O'quvchilarni esse yozishga o'rgatish;

Tarbiyaviy: O'quvchilarni mehnatga bo'lgan intilishlarini oshirish, kasbga bo'lgan qiziqishini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarni izlanishga, fikrlashga, o'z fikrini mustaqil bayon etishga o'rgatish.

**Dars turi:** yangi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

**Dars metodi:** suhbat, tushuntirish, ta'limiy o'yin, "Klaster" metodi, Aqliy-hujum, boshqotirma

**Dars jihozi:** darslik, rag'batlantiruvchi kartochkalar, mavzuga mos rasmlar, multimediali ilovalar.

**Dars shiori:** Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal

**Darsning borishi:**

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish, navbatchi hisoboti, savodxonlik daqiqasi

**II. Uy vazifasini tekshirish.**

Vazifa tekshiriladi. Mavzular bo'yicha qisqa savol-javob o'tkaziladi. Davlat ramzlari esga olinib, bayroq haqida slayd namoyish etiladi. 5 tashabbus slayd

**III. Yangi mavzu bayoni.**

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

Mashg'ulot vaqti: 2 soat o'quvchilar soni: \_\_\_\_\_ ta

O'quv mashg'ulot shakli va turi:

Amaliy bilimlarni mustahkamlash va ko'nikma malakalarni shakllantirish o'quv mashg'uloti

O'quv mashg'ulotining rejasi:

1. Esse-ijodiy matn haqida.
2. Esse haqida ma'lumot.
3. Essening tili va ifoda uslubi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Nutq uslublari to'g'risidagi bilim ko'nikmalarni shakllantirish.

O'qitish natijasi: O'quvchilar O'zbekiston haqidagi bilimga ega bo'ladilar

**Pedagogik vazifalar:**

Esse bilan tanishtirish.

Mavzuga doir savol-javoblar

Esse orqali o'quvchilar so'z boyigini oshirish

O'quv faoliyati natijalari:

Mavzu haqida bilib oladi;

Essening o'zaro farqlanishi haqida ma'lumot oladilar;

Mavzuga doir gap tuzadilar.

**O'qitish metodlari:**

Matn eshittirish, suhbat, mashq, amaliy ish.

**O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari:**

Individual, guruhlarda ishlash

**O'qitish vositalari:**

O'quv qo'llanma, kompyuter, elektron darslik, tarqatma materiallar

**O'qitish sharoiti:**

Maxsus jihozlangan o'quv xonasi

**Qaytar aloqaning usul va vositalari:**

Og'zaki nazorat savol-javob, yozma nazorat: mashq bajarish, so'zlarga ta'rif berish

**"Esse-ijodiy matn" bo'yicha o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi**

1-bosqich. Mavzuga kirish (15-daq.)

1.1. O'quvchilar davomati va darsga tayyorgarligini tekshiriladi.

1.2. Mavzu haqida aqliy hujum tarzida darslar takrorlanadi

1.3. Mavzuning nomi va maqsadi bilan tanishtiriladi. Darsga tayyorlanadilar

2-bosqich. Asosiy qism. (20-daq.)

2.1. O'quvchilarga mavzuga oid so'zlar va matn eshittiriladi.

a. Matndan yangi so'zlar yozib olinadi va savollarga javob yoziladi.

b. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib ishlash va mavzu uslublari haqida ularning fikrlarni so'rash.

c. Mavzu haqida tushuntiriladi va shu asosda gaplar tuziladi.

d. Yangi mavzu muhokama asosida mustahkamlanadi.

3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 daq.)

3.1.O'quvchilar qay tarzda faol qatnashganligi asosida baholanadi.

Nutq uslublari haqida qiziqarli ma'lumotlarni yig'ish.

Esse (frans. – urinish, sinash, ocherk) – erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy-biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiyommabop yoki sof belletristik xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. Mustaqil janr sifatida A. Montel ijodida tarkib topdi. O'zbek adabiyotida 20-asrning 70–80- yillaridan esse yaratila boshlandi.

IV. Mavzuni mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi:

**“O'yla, izla, top!” ta'limiy o'yini.**

Guruhlar ikkiga bo'linadi. 1. Tilchilar . 2. Adabiyotshunoslar.

O'quvchilar daraxtdan mevalarni uzgan holda, savollarga javob berishlari kerak bo'ladi ! Savollar ona tili hamda adabiyot fanidan tuziladi.

1. Essening kirish qismi nechta gapdan iborat bo'lishi lozim?

2. Esse qaysi uslubda yaratiladi?

3. Esseni dalillar bilan yozish to'g'rimi, sizningcha?

4. Qaysi asar qahramoniga havasingiz keladi va uning sababi?

5. Essening kirish qismida qanday so'zlardan foydalansak, jarangdor bo'ladi?

6. Esse qaysi qanday qismlardan tashkil topadi?

**“Bo`lishi mumkin emas” ta`limiy o`yini.**

Bu o`yinni o`tkazishda matn o`qib beriladi. O`quvchilar bo`lishi mumkin bo`lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari kerak. Hazil – mutoyiba bilan o`ynaladigan bu o`yinda o`quvchilardan ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlik talab qilish bilan birgalikda ulardan atrofda sodir bo`layotgan voqea va hodisalarga befarq bo`lmaslikni talab etiladi.

1. Olimjon ertalab turdi va osmonda charaqlab turgan ikkita quyoshni ko`rdi.

2. Azizbek dadasi bilan futbol o`yiniga bordi, o`yin juda qiziqarli bo`ldi. O`yinda o`n bitta hakam va bitta futbolchi mahorat bilan futbol o`ynadi.

3. Sevara sakkizinchi mart kuni dadasi va ukasiga sovg`a uchun tabriknoma yozdi.

O`yin guruhlar tomonidan davom ettiriladi.

**“Aqliy hujum” o`yini”**

O`quvchilarga ma`lum bo`lgan sanalar ko`rsatiladi hamda qanday kun ekanligi sharhlanishi so`raladi.

Fikrni dalillash.

Kirish.

Asosiy qism.

Argument.

Tezis.

Xulosa.

**KIM BILIMDON?**

Bu o`yinda o`quvchilar sharlar ichidan o`tilgan mavzularga oid bo`lgan savollarga javob berishlari lozim bo`ladi.

**Davom ettir...**

Bu tanlovda o`quvchilar esse qismlarini davom ettirishlari kerak bo`ladi. Namuna:

1. Asosiy –....

2. Xulosa –.....

3. Kirish – ...

V. Darsga yakun yasash va baholash.


1. Bugun darsda nimani o`rgandingiz?

2. Nimalarni bilib oldingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldirilib yakunlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

**O'qituvchi esse yozish qoida va tartibini eslatadi.**

O'quvchilar esseni to'la yoritib bera olishlari uchun esse mavzusiga mos rasm ilovalash .



Esse mavzusi: "Zamonamiz qahramoni kim? O'quvchilardan savollarga javob olingach, esse yozish uchun ularda yetrali ma'lumotlar bo'lishi uchun matnning audiosi eshittiriladi.

### QAHRAMONLAR NEGA KERAK?

- 1 Inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayoqsiz **yashashi** mushkul. Buni kitoblardan ham, tarixdan ham, oddiy odamlarning kundalik hayotidan ham bilib olsa bo'ladi. Masalan, o'sha qahramon bo'lmasa, oilada ham, mahallada ham, xalqda ham suyanadigan tayanch nuqta yo'qolganday bo'ladi.
- 2 Bir kuni tengqurlarim bilan "Zamonamiz qahramoni kim?" degan mavzuda suhbatlashib qoldik. Birov: "So'nggi urfda kiyinadigan, kamida ikkita tilni biladigan, chet elda o'qib kelayotgan **yoshlar**", – desa, yana biri: "Zamonamiz qahramoni degan nomga sportchilarimiz munosib, chunki yurtimiz nomini **dunyoga** yoyishda ularning hissalarini ko'proq", – dedi. Kimdir dehqonlar desa, kimdir olimlarni, yana kimdir estrada yulduzlarini tilga oldi. Hammamiz o'zimizcha haq edik.
- 3 "Zamonamiz qahramoni kim?" deb savol berishning nima hojati bor, barcha davrlar uchun o'lmas qahramonlar bor-ku, **o'shanday** insonlarga ergashish, taqlid qilish mumkin, dersiz. Darhaqiqat, necha-necha avlodlar uchun yo'lchi yulduz bo'lib kelayotgan, aql-u zakovati, kuch-qudrati, komil fazilati bilan tarixida **o'chmas** iz qoldirgan buyuklarimiz bor. Birgina Amir Temur bobomiz yoki Jaloliddin Manguberdi nomlarini **tilga** olsak, qalblarimiz faxr-u g'ururga to'ladi. Lekin ular shunchalar yuksakdagi, bugungi avlod ularga yeta olishi mushkul. Faqat havas qilish va munosib avlod bo'lishga harakat qilish imkoni bor, xolos. Qolaversa, hayot tarzimiz, fikrlash yo'sinimiz o'rtasida shunchalik katta vaqt masofasi borki, ularni zamonamiz qahramoni sifatida **yonimizda his qilolmaymiz**.
- 4 Bizning ham o'zgarishlar, yangilanishlar to'loqinida kechayotgan o'z zamonamiz bor. O'z orzularimiz va armonlarimiz, o'z g'alabalarimiz va mag'lubiyatlarimiz **bor**. Shular ichida biz o'z zamonamiz qahramonini ham izlaymiz. Ichimizdan biz bilan bir xil imkoniyatga ega bo'la turib, bizdan o'zib ketgan, dunyoni o'zgacha idrok etishi, favqulodda qobiliyati, irodasi, aql-u zakovati bilan bizni hayratga soladigan, **ortidan** ergashtiradigan zamonamiz qahramonlari chiqishini xohlaymiz.

Ibrohim Aziz

O'quvchilar esseni qiziqarli va jonli yoza olishlari uchun hozirda ommaviy axborot vositalarida, sportda, biznes va boshqa sohalarda taniqli bo'lgan insonlarning rasmlari ilova qilinadi.

Bugungi kun qahramoni kim? Qanday insonlarni biz qahramon deya olamiz? Zamonamiz qahramoni qanday bo'lishi haqida o'ylab ko'ring va "Zamonamiz qahramoni kim?" mavzusiga esse yozishga tayyorlaning.

**VI. Uyga vazifa:** o'zingizga yoqadigan tarixiy shaxs va uning qahramonliklari haqida "Tarixdagi qahramonlar" mavzusida matn tuzing. Quyidagi ko'rsatmalardan foydalaning:

1. Qahramonning ismi.
2. Uning tarixdagi o'rni.

3. Qahramonning fazilatlari.

4. Ushbu qahramonga o'xshash uchun nimalar qilish lozim.

Dilfuza Egamberdiyeva – dunyo tan olgan o'zbek olimasi. Mikrobiologiya bo'yicha dunyoning nufuzli olimlari orasida o'z o'rniga ega. Dilfuza Egamberdiyeva Germaniya, Finlandiya, Angliya, Italiya, Niderlandiya, Xitoy, Amerika Qo'shma Shtatlari universitetlarida ilmiy faoliyat olib borgan. Yirik xalqaro loyihalarga rahbarlik qilgan. Olima UNESCO xalqaro tashkilotining L'OREAL – "Olima ayol" mukofoti bilan taqdirlangan.



Bahodir Jalolov – o'zbekning yengilmas bokschi. U boksning o'ta og'ir vazn toifasida ringga chiqadi. Bahodir Jalolov shu kunga qadar dunyoning turli nufuzli musobaqalarida vatanimiz bayrog'ini yuqori ko'targan. Xususan, 2019-yili jahon chempioni, 2020-yili Olimpiada chempioni sifatida oltin medalni qo'lga kiritib, o'zbek boksi shuhratini dunyoga yoygan. Sportchi "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni va "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

Akmaljon Usvaliyev – fidoyi tadbirkor. U, yura olmasa-da, tinim bilmaydi. Bir necha yillar oldin ijaraga joy olib, kompyuter xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Keyin faoliyatini kengaytirgan, kompyuter texnologiyalarini o'rgangan. Shu kungacha qahramonimiz 40 nafarga yaqin shogird yetishtirib, ushbu sohaning sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda. Hozir 15 nafar yigit-qizni ish bilan ta'minlagan. Tadbirkor ko'p yillik mehnatlari uchun "Jasorat" medali bilan taqdirlangan.



Xulosa sifatida aytish mumkinki, esse yozishda o'quvchilar fikr almashadilar, izlanadilar, hamkorlikda yechimini topadilar. Esse orqali mustahkamlashning boshqa usullardan farqi shundaki, talabalar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtirib o'zlari himoya qiladilar. Bu usul talabalarda ijodkorlik va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi.